



IJTIMOIIY MUNOSABAT FE'LLARINING KONSEPTUAL VA KOGNITIV ASOSLARI

Nabiyeva Zarrina Isomiddinovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy munosabat fe'llarining konseptual va kognitiv asoslari lingvokognitiv yondashuv nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Maqoladada ushbu fe'llarning semantik tuzilmasi, ularning inson ongida shakllanadigan konseptual maydon bilan o'zaro bog'liqligi hamda kognitiv modellarda tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy munosabat fe'llarining ma'no qatlamlari, ularning madaniy, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida qanday konseptualizatsiyalanishi izohlanadi. Ish natijalari til tizimidagi ijtimoiy semantikaning yanada chuqurroq o'rganilishi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy munosabat fe'llari, konseptual asos, kognitiv yondashuv, semantika, til tizimi, konseptual maydon, madaniy omillar, kognitiv model.

Аннотация. В данной статье анализируются концептуальные и когнитивные основы глаголов социальных отношений с точки зрения лингвокогнитивного подхода. Рассматривается семантическая структура этих глаголов, их взаимосвязь с концептуальным полем, формирующимся в человеческом сознании, а также их место в когнитивных моделях. Особое внимание уделяется объяснению того, как значения глаголов социальных отношений концептуализируются под влиянием культурных, психологических и социальных факторов. Результаты исследования служат научной базой для более глубокого изучения социальной семантики в системе языка.

Ключевые слова: глаголы социальных отношений, концептуальная основа, когнитивный подход, семантика, языковая система, концептуальное поле, культурные факторы, когнитивная модель.

Abstract. This article analyzes the conceptual and cognitive foundations of social relation verbs from a linguo-cognitive perspective. It explores the semantic structure of these verbs, their connection with the conceptual field formed in human cognition, and their role within cognitive models. The research also explains how the meanings of social relation verbs are conceptualized under the influence of cultural, psychological, and social factors. The results provide a theoretical basis for a deeper understanding of social semantics within the language system.

Keywords: social relation verbs, conceptual basis, cognitive approach, semantics, language system, conceptual field, cultural factors, cognitive model.

KIRISH.

Ijtimoiy munosabat fe'llarining tuzilishida biz inson va jamiyat munosabatlari idrok qilinishini kuzatamiz. Bundan kelib chiqadigan asosiy ma'nolarni muhim maqsadga yoki an'anaviy terminologiya bilan aytganda, belgi sifatida qaraymiz. Ijtimoiy munosabat fe'llarini tahlil qilishda gapning sintaktik tarkibi funksional vazifalarini tashkil etuvchi jihatlariga e'tibor qaratilgan. Ushbu guruh fe'llarini leksik-semantik (fe'l leksema sifatida), semantik-sintaktik (fe'l jumla tarkibidagi tarkibiy qism sifatida) va dinamik-funksional (fe'l harakat yoki holat vazifasini bajarishi) jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat fe'llarining tabiati, ekstralingvistik voqelikning nutqda aks etishi esa subyekt va obyekt munosabatlarga asoslangan omillar orqali aniqlanadi¹.

Voqelikni ifoda etish uslubiga ko'ra, fe'l harakat/holatga tegishli bo'lgan, nutqning asosiy funksional vazifalarni bajaradi.

¹ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – Москва, Добросвет, 2000. – С. 146.



Ijtimoiy-harakat fe'llari obyekt bilan munosabatga kirishish xususiyatiga ko'ra, jarayonlarni, shaxslararo munosabatlarni, jamiyat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni nutqda aks ettiruvchi ma'nolarni ifodalaydi. Fe'l esa inson ongidagi munosabat turlariga asoslanadi.

Fe'l keng ma'noda, dinamiklik (harakat) va holat koordinatalariga ega hodisa sifatida baholanadi. Ularning morfologik jihati umumiy kategorial ma'nosi bilan belgilanadigan grammatik kategoriyalar majmui yordamida shakllanadi. Fe'lning grammatik kategoriyalari voqeliklarni aks ettirgan holda, turli xususiyatlar va so'zlovchining atrof-muhitga, bir-biriga bo'lgan munosabatini belgilashda ma'lum shakl va qonun-qoidalarga asoslangan tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Unda asosiy e'tibor kognitiv semantikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan, ijtimoiy munosabat fe'l guruhlarining leksik ma'no modelini shakllantirishga yordam beradigan lingvistik hodisalar turkumiga kiruvchi jihatlar konseptual nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, ishda fe'lga oid birliklarning aspektual semantikasi ham konseptual jihatdan ko'rib chiqiladi. Tilni konseptual tahlil qilishda, konsept ong mexanizmining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u insonning axborotni qayta ishlash jarayonida vujudga keladigan bilim va kognitiv jarayon mahsuli sifatida har bir tilning o'ziga xosligini ta'kidlaydi.

Konsept insonning bilim va tajribasining umumlashgan shakli sifatida til orqali ifodalanadi. Leksik ma'no esa ona tilida so'zlashuvchining ongida mavjud bo'lgan belgi (so'z) bilan bog'langan va lug'atda aniq bir turg'un konseptual ma'lumotning verbal ifodasidir.

Kognitiv jarayonlar faqatgina tushunchani ifodalash usuligina bo'lib qolmay, balki ham so'zlarning ma'nolarini o'zgartirish usullarini, ham va shu orqali polisemantik so'zlarning semantik tuzilmalarini shakllantirishni belgilaydi.

Fe'lning semantik tarkibini aniqlaydigan kontekstual tartibga solingan paradigma vositalar aspektual ma'nolar o'rtasidagi munosabatlarni, farqlarni aniqlash predikat ma'nolarini farqlash va, shuningdek, aspektni an'anaviy tahlil doirasidan kengroq bo'lgan konsept nazariyasi bilan bog'lash aspektual semantika tavsifini hal qilishga qaratilgan. Aspektuallikning kognitiv tadqiqotlari uni kognitiv grammatika doirasida o'rganishda erishilgan muhim yutuqlarni inobatga oladi². Shuning uchun aspektni semantik modellashtrish kognitiv modellashtrishdan oldingi bosqich bo'lib, kognitiv va lingvistik hodisa sifatida aspekt ma'nolari haqida yangi ma'lumotlarning o'zlashishiga sabab bo'ldi.

Aspektuallikni o'rganish tarixiga nazar tashlash zamonaviy semantika uchun muhim bo'lgan bir qator nazariy masalalarni aniqlash imkonini berdi. Bizningcha, eng dolzarb masalalardan biri aspektual ma'nolarning muntazamligi, ya'ni ma'lum bir turg'un shakldagi ma'nosi, harakatning lisoniy shaxs ongida kechishi, tasavvuridagi modellarni aniqlash bilan mantiqiy bog'liq bo'lgan ma'nolarning semantik o'tishlari va umumiy ma'no muammosi bilan bog'liq masalalardir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy munosabat guruhi fe'llari sinfi geterogen tarkib bilan tavsiflanadi. Ba'zi fe'llar ijtimoiy o'zaro ta'sirning umumiy turini nomlashga (himoya qilish, ta'minlash, bo'ysundirish, boshqarish) xizmat qilsa, boshqalari ijtimoiy sohani aks ettiruvchi fe'l lug'atining yadrosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosabat fe'llari sifatida tan olinadi. Masalan: tobe qilmoq – kimgadir yoki biror narsaga qaram qilmoq, bo'ysundirmoq, biror narsaga muvofiq harakat qilishga majburlamoq (majbur qilmoq).

Ushbu guruhga tegishli boshqa fe'llar ma'nosida ishtirokchilarni, vaziyatni ko'rsatish uchun ishlatiladi hamda harakatni amalga oshirishning “motor dasturi”ni (E. S. Kubryakova atamasi) o'z ichiga oladi. Masalan: qo'riqlamoq (muxofaza qilmoq) – “ma'lum bir hududda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan, militsiya yoki harbiy kuchlar tomonidan biror shaxsni, xususiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan biror obyektini tartib intizomni buzuvchilardan himoya qilish, va hokazo misol tariqasida keltirish mumkin.

Misol tariqasida, himoya qilish fe'lining asosiy ma'nosiga qarasak, himoya qilmoq fe'li tajovuz, hujum, dushmanlik va tahdid kabi harakatlardan himoya qilishni anglatadi. Bu fe'l birikmasi retrospektiv ravishda ishlatiladi: himoya doimo avvalgi hujum, dushman tahdidi yoki yovuz harakatlar natijasida paydo bo'ladi.

Ijtimoiy munosabat fe'llarining konseptual va kognitiv asoslari lingvokognitiv nuqtai nazardan keng

² Langacker R.W. (keltirilgan adabiyot). – B. 67.



yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy munosabat fe'llari inson tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab semantik-kognitiv tizimni tashkil etadi. Ushbu fe'llar faqat harakat yoki holatni emas, balki insonlar o'rtasidagi psixologik, axloqiy va madaniy munosabatlarning mazmunini ham ifodalaydi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy munosabat fe'llarining semantik tuzilmasi, ularning konseptual maydon bilan aloqasi, shuningdek, ularning madaniyat va ijtimoiy kontekstda qanday konseptualizatsiyalanishi aniqlab berildi. Fe'llarning kognitiv xaritasi orqali til birliklari inson ongida qanday modellashishini tushunish imkoniyati yaratildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy munosabat fe'llari tildagi ijtimoiy semantikaning eng faol va dinamik qatlamlaridan biridir. Ular orqali nafaqat lingvistik ma'no, balki ijtimoiy ong, madaniyat va qadriyatlar tizimi ham aks etadi. Shu boisdan bunday fe'llarni kognitiv va konseptual jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va sotsiolingvistika sohalari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. – Москва, Добросвет, 2000. – С. 146.
2. Губанова В.А. Некоторые вопросы глагольной полисемии. Актуальные проблемы лексикологии. Новосибирск, 1969. – С. 123.
3. Канцельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. Ин-т языкознания. – Ленинград: Наука, 1972. –216 с.
4. Langacker R. W. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. M.de Gruyter, Berlin. New York, 2010. – p. 67.
5. Ramchand G. Aspect and Predication: The Semantics of Argument Structure. 1997. – 250 p.
- ?? Abdurasulovna, E. Z. (2023). Complex prepositions in english undergoing semantic changes. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 238-241.
- ?? Abdurasulovna, E. Z. (2023). Manifestation of Causal Meaning in Complex English Prepositions.
- ?? Mamirova, D. (2026). SOCIOLINGUISTIC RESEARCH OF ADVERTISING TEXTS. Asian journal of scientific research and innovations, 1(1), 155-157.
- ?? Мирзаханян, А. Е., & Трошкина, Ю. Ю. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПЕЧАТНОЙ РЕКЛАМЫ КАК ВИДА РЕКЛАМНЫХ НОСИТЕЛЕЙ. In Дизайн: теория и практика (pp. 82-84).
- ¹ Мамирова, Д. (2018). Реклама матнларининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3), 68.
- ¹ Mamirova, D. (2024). REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 45-47.
12. Shirinboyevna, M. D. (2024). NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 39-42.